



## ITALIYA VA UNING QADIMG'IAHOLISI

**Maxmadaminov Ramziddin**

*SHDPITarix yo'nalishi 1-kurs*

*1-24 kechki guruh talabasi*

**Fan o'qtuvchisi: Bobojonov Behruz**

**Annotatsiya:** Ushbu mavzu Italiya hududining qadimgi aholisi – etrusklar, rimliklar va boshqa xalqlar hayoti, ularning madaniyati, ijtimoiy tuzumi va tarixiy ahamiyati haqida ma'lumot beradi. Ular Italiya sivilizatsiyasining shakllanishiga katta hissa qo'shgan.

**Kalit so'zlar:** Italiya, qadimgi aholi, etrusklar, rimliklar, tarix, madaniyat, sivilizatsiya.

**Аннотация:** Тема посвящена древним народам, населявшим территорию Италии, таким как этруски и римляне. Рассматриваются их культура, общественный строй и вклад в развитие итальянской цивилизации.

**Ключевые слова:** Италия, древние народы, этруски, римляне, история, культура, цивилизация.

**Annotation:** This topic discusses the ancient peoples of Italy, including the Etruscans and Romans. It highlights their culture, social structure, and their contribution to the formation of Italian civilization.

**Keywords:** Italy, ancient peoples, Etruscans, Romans, history, culture, civilization.

Italiya, o'zining boy madaniy merosi va tarixiy ahamiyati bilan dunyoning eng qadimiy va o'ziga xos mamlakatlaridan biridir. Qadimgi Italiya aholisi, turli xalqlardan iborat bo'lib, har biri o'zining unutilmas izlarini qoldirgan. Bu hududda yashagan xalq va madaniyatlar, Etrusklardan to Rim imperiyasigacha bo'lgan davrni qamrab oladi, va har biri o'zining o'ziga xos xususiyatlari, an'analari va ta'sirlari bilan tarixda muhim o'rin tutadi. Etrusklar, griklar va rimliklar kabi xalqlar o'z vaqtida nafaqat Italiya, balki butun O'rta Yer dengizi havzasining siyosiy, madaniy va ilmiy rivojiga katta hissa qo'shgan. Bu maqolada biz qadimgi Italiya aholisining tarixi, madaniyati va ijtimoiy tuzilmasi haqida batafsil so'z yuritamiz.





Arxeologik qazishmalar Italiyada odamlar paleolit davrida joylashganini tasdiqlaydi. Ular dastlab g'orlarda yashaganlar va ovchilik bilan shug'ullanganlar. Er. aw. 1800-yillar atrofida Apennin yarim orollariga shimoldan yangi qabilalar kelib o'rnashdilar. Ular bilan Terra — Marra (italyancha-«qora unumdor yer») dehqonchilik madaniyatini olib keldilar. Bu qabilalar suvdan ko'tarilgan ustunlarda qurilgan yoki uylarda yashaganlar to'g'ridanto'g'ri qirg'oqda qurilgan. Keyinchalik bu madaniyatning vakillari latin, samnit, umbrlar qabilalariga bo'linib ketdilar.

Er. aw. 1000 yilliklar atrofida qabilalarning yangi to'liqini Villan madaniyatini (Bolqoniya yaqinidagi joy nomi bo'yicha) olib keldilar. Bu madaniyat vakillari o'lik mayitlarni gulxanda yoqib, kulini maxsus idishlarda saqlar edilar. Er. aw. VIII asrda Italiyada ikki til guruhida so'zlaydigan latin-sikull, sabin-umbrlar tashkil qildilar. Latinlar dastlab qadimgi Latsiya hududida yashadilar. Umbrlar Tibming yuqori qismida samnitlar tog'li Samnit viloyatida, shimoliy Kampaniya, Apuliya, Lukaniya va Bruttியada yashadilar. Volsklar tili umbrlar va sabin qabilalariga yaqin bo'lgan Volsk hududida latinlardan janubda yashadilar.

Aterna daryosining so'l qirg'og'ida vestin va marusin qabilalari joylashdilar. Ularning ijtimoiy munosabatlari mutlaqo ibtidoiy edi. Italiyaliklar kelishigacha mamlakatni shimoli-g'arbidagi ligurlar italiyaliklar kelishigacha eng qadimgi tub joy aholisi edi. Jez davri boshlarida kelgindi hind-yevropa qabilalari ligurlarni Italiyaning shimoliy g'arbiga siqib chiqardilar. Italiyada joylashgan sikan va sikunlar ham ibtidoiy hayot kechirar edilar. Ular dastlab Sitsiliyada yashar edilar. Keyinchalik ularni Finikiya va yunon kolonistlari orol ichkarisiga siqib chiqardilar. Bu davrda Italiya hududida finikiyaliklar va etmsklar qaram kishilar mehnatidan foydalanib jamiyat taraqqiyotida yuqori darajaga erishganlar.

Er. aw. I ming yillikda yarim orolning aholisini asosiy qismini hind-yevropa qabilalari bo'lgan italiyaliklar, illiriyaliklar va yunonlar tashkil qildi. Yunonlar ilk bor Italiyaga er. aw. II ming yillikda paydo bo'ldilar. Er. aw. VIII asrda Janubiy Italiya va Sitsiliyada ko'plab yunon koloniyalari barpo qilina boshlandi. Janubiy Italiyada shunday koloniyalardan Lokri, Sibaris, Tarent va Kroton, Sitsiliyada esa Sirakuza, Gela va Akragant koloniyalariga asos solindi. Yunonlar dehqonchilik, chorvachilik va vositachi savdo bilan shug'ullandilar. Yunon koloniyalarida savdohunarmandchilik, dehqonchilik gullab-yashnadi. Bu koloniyalar o'z ona vatanlari Bolqon Yunonistoni, Kichik Osiyo va boshqa hududlar bilan faol savdo aloqalarini yo'lga qo'yidilar. Vaqt o'tishi bilan bu hudud buyuk Yunoniston nomini oldi. Yunon koloniyalarida ijtimoiy-siyosiy hayot keskin ziddiyatli edi.





Yunonlarning ilg'or ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, polis tuzumi, madaniy turmush tarzi mahalliy qabilalarni tarixiy taraqqiyot jarayoniga ta'sir qilib, ularda ilk sinfiy jamiyat va davlat tashkilotini shakllanish jarayonini tezlashtirdi. Tarentlik Liviy Andronik Rim adabiyotining asoschilaridan biri hisoblanadi. Er. av. I ming yillik o'rtalarida Po vodiysida kel't qabilalari o'rnashtirdilar. Ular bosh kiyimlarini xo'roz patlari bilan bezar edilar, shu sababli rimliklar ularni gall (latinchaga gallus - «xo'roz») deb atadilar. Er. av. VI asrdan boshlab Sitsiliya va Italiyaga finikiyaliklar kela boshladilar.

Er. av. III asrda Italiya hududi Rim istilolari natijasida yagona davlatga birlashdi. Natijada bu yerda yashagan turli qabila va xalqlar bir-biri bilan yaqinlashib romanlashish jarayonini boshdan kechirdi. Er. av. I asrga kelib latin tilida so'zlashadigan yagona italiyan xalqi shakllandi. Shu davrdan boshlab mamlakat Italiya deb atala boshlandi.

#### **Xulosa:**

Xulosa qilib shuni ta'kidlaymanki, qadimgi Italiya hududi ko'plab italik xalqlar — etrusklar, lotinlar, sabinlar va boshqalar yashagan boy madaniy makon bo'lgan. Ularning har biri o'ziga xos madaniyat va an'analarni rivojlantirib, Rim sivilizatsiyasining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Bugungi Italiya madaniyati ham ana shu tarixiy ildizlarga borib taqaladi. Ushbu qadimgi xalqlarning merosi nafaqat Rim imperiyasining siyosiy va harbiy qudratida, balki san'at, me'morlik, huquq tizimi va diniy e'tiqodlarda ham namoyon bo'lgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Rajabov, R. "Qadimgi dunyo tarixi" Toshkent-2009.
2. Kabirov, A. "Qadimgi Sharq tarixi" Toshkent-2016.
3. Roger B. Beck, Linda Black, Larry S. Krieger, Philip C. Naylor, Dahia Ibo Shabaka "World history: patterns of interaction" . Oxford University Press. England 1994.
4. Victor Parker. A history of Greece, 1300 to 30 BC. WILEY Blackwell. 2014.
5. Мишкин Н. А. Принципат Августа . М, -Л, 1949

